



TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Eshmatova S.SH

Toshkent shahri Puchon universiteti Ta'lim
muassalarini boshqarishning 2-bosqich magistranti

7ora999@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Pulatova M.B**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi dotsenti PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ta'lim sohasini byudjetdan moliyalashtirish amaliyoti bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Ta'limni moliyalashtirish ta'lim tizimining qulayligi, sifati va rivojlanishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqola ta'lim sohasidagi budjet mablag'larining roli va uning ta'lim dasturlari, infratuzilmalarga ta'sirini o'rganadi. Budjet mablag'laridan samarali foydalanish tamoyillari, adolatli taqsimlash va barqaror moliyalashtirish masalalari muhokama qilingan.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha xorij tajribasini o'rganadigan bo'lsak, umumiy holatlar bo'yicha biroz ortga nazar tashlab o'tamiz.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasining inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tomonidan eng muhim masalalaridan biri bo'lgan ta'lim bo'yicha olib borilgan muzokaralari kelishuviga erishildi. Ushbu kelishuv natijasi shunday to'xtamga kelindiki, ta'limni rivojlantirish jamiyatni rivojlantirish uchun eng



katta daromadli investitsiya sifatida tan olindi. Dunyo bo'yicha 1960-yillarda boshlang'ich maktablarda 240 mln. dan ortiq o'quvchilar ta'lim olgan bo'lsa, 20 yildan keyin ushbu ko'rsatkich 540 mln. ga yetdi.¹

Ta'lim olish inson huquqlarining eng asosiy omilidir va u eng pastki pog'onada majburiy va bepul bo'lishi kerak. Bu tamoyil aksariyat davlatlarda qabul qilingan yoki ushbu tamoyilga rioya qilinadi. Bu esa o'z-o'zidan davlat byudjetidagi ta'lim uchun sarflanadigan mablag'larni yuqori bo'lishiga olib keladi.

Aksariyat rivojlanib borayotgan davlatlarda 1960-70-yillardagi moliyaviy inqiroz natijasida oliy ta'limni moliyalashtirish davlat byudjetini asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi, shu bilan birga nafaqat oliy ta'lim balki, boshqa quyi ta'lim bosqichlari ham. Bu vaziyatda YalMning umumta'lim maktablaridagi ulushi rivojlangan davlatlarda 3,47 foizdan 4,86 foizga oshdi, rivojlanib borayotgan davlatlarda esa 2,55 dan 3,63 foizga o'sdi. Lekin, bu narsa stabil holatda uzoqqa cho'zilmasligi aniq edi. Chunki, ijtimoiy talab oshib borgan sari moliyalashtirishning yangi manbalarini topish va tashkil etish ehtiyoji vujudga keldi.

Rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy sektor cheklangan yoki ayrimlarida umuman yo'q. Yevropada faqatgina Belgiya va Gollandiyada xususiy maktablar davlat tomonidan subsidiyalanadi. Bu holat Fransiya va Daniyaga ham taalluqli, u yerda 10 foizdan 20 foizgacha maktablar davlat tomonidan subsidiyalanadi. Faqat Ispaniya, Buyuk Britaniya va Gretsiyada davlat tomonidan moliyalashtirilmaydigan xususiy maktablar soni ko'p. Xususiy maktablarda o'quvchilarning qamrovi Ispaniyada 13 foiz, Buyuk Britaniyada 6 foiz, Gretsiyada 4 foizni tashkil etadi. Amerikada boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy maktablardagi o'quvchilar soni 10 foizdan oshmaydi va ularning o'rtacha yillik to'lovi 1700 dollar atrofida. O'rta ta'lim bo'yicha xususiy maktablarga qamrab olingan o'quvchilarning ko'rsatkichi esa 6 foizni tashkil etadi, ammo uning to'lovi ancha yuqori bo'lib, 3650 dollar atrofida. Bu ko'rsatkichlar Kanadada boshlang'ich

¹ <http://www.jstor.org/> Jean-Claude Eicher. "The Financing of Education: An Economic Issue" European Journal of Education, Vol. 35, No. 1 (Mar., 2019), pp. 33-44.



ta'limda 4 foiz, o'rta ta'limda 6 foiz, Yaponiyada esa boshlang'ich ta'lim bo'yicha xususiy sektor umuman yo'q, lekin o'rta ta'limda 3 foizdan pastroqni tashkil etadi.²

Ikkinchidan, aksariyat davlatlarda bu xarajatlar ota-onalar tomonidan qoplanadi yoki keyingi yillarda ularning zimmalariga o'tgan. Masalan, Afrikada bu xarajatlar ancha qimmatga tushadi, ya'ni kitoblar, formalar (maktablarda o'quvchilar kiyishi majburiy bo'lgan) kabi to'lovlar uchun. Faqat o'qituvchilarning maoshlari odatda davlat byudjeti tomonidan to'lanadi.

Uchinchidan, ba'zi bir turdagi xarajatlar ota-onalar yoki ularning oila a'zolari tomonidan to'lanishi majburiy bo'ladi, albatta agarda o'quvchi maktabga qatnayotgan bo'lsa. Masalan, transport xarajatlari o'quvchilar uchun kamdan-kam xollarda bepul. Ba'zi bir davlatlarda Yaponiya va Janubiy Koreyadagidek xususiy darslar (repetitorlik) juda muhim, eng muhimi o'rta ta'lim darajasidagi o'quvchilar uchun.

Davlat tomonidan ta'lim sohasini moliyalashtirish boshqa sohalarni moliyalashtirish bilan (sog'liqni saqlash, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa) majoziy ma'noda raqobatga kirishadi. Shuning uchun keyinchalikda maktab ta'limining o'sishi yoki rivojlanishi boshqarishning yangi usul va metodlari bo'yicha qo'llanilayotgan eksperimentlarga, jamoat tomonidan ta'limni qo'llab quvvatlash imkoniyatlari tadqiqotlariga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularda ta'lim tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida oqilona yo'naltirilgan bo'lib, uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri kuchlidir.

Ta'lim tizimini samarali tashkil etilishi iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatda boshlang'ich va o'rta ta'lim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi³.

² <http://www.jstor.org/> Jean-Claude Eicher. "The Financing of Education: An Economic Issue" European Journal of Education, Vol. 35, No. 1 (Mar., 2019), pp. 55.

³ Chia-HuiLu. "Social status, compulsory education, and growth"// Economic Modelling. Volume 68, January 2018, Pages 425-434



Ta'lim tizimining xalqaro statistik ko'rsatkichlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida mamlakatlarida ta'lim sohasini moliyalashtirishning haqiqiy ko'rinishini beradi. Dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim sohasidagi byudjet mablag'larini rejalashtirish va taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi manbalari mavjud:

- YUNESKO statistika institutining (Global Education Digest) ta'lim bo'yicha yillik hisobotlari;
- Iqtisodiy hamjamiyat va rivojlanish tashkilotining (OECD) mamlakatlari tomonidan ta'lim to'g'risidagi yillik hisobotlari (Education at a Glance: OECD Indicators);
- Jahon bankining ma'lumotlari.

Ta'lim tizimini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini, shuningdek, ushbu mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda byudjet mablag'laridan samarali foydalangan holda ta'lim tizimini moliyalashtirish tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.


Moliyaviy mexanizmlar haqidagi turli qarashlarga asoslanib, ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmining quyidagi tarkibiy qismlari mavjud:

- ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari;
- ta'lim tizimini moliyalashtirish tartibi;
- byudjetni rejalashtirish va ta'lim tizimining byudjet mablag'larini taqsimlash usullari.

Ta'lim tizimining moliyalashtirish mexanizmining muhim elementi bo'lib moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bugungi kunda jahon amaliyotida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda 2 ta manbadan foydalaniladi:


- byudjet mablag'lari;
- byudjetdan tashqari mablag'lar.

Quyidagi jadvalda xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimini davlat byudjetidan moliyalashtirish holati to'g'risida ma'lumot keltirilgan (1-rasm).

**1-rasm. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlarining ulushi, foizda⁴**

Ushbu rasm ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida mamlakatimizda ta’lim xarajatlarining davlat byudjeti tarkibidagi ulushi bir qator xorijiy mamlakatlardan qariyb 2-3 barobar ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

YaIM tarkibida ta’lim xarajatlarining ulushini ilg‘or xorijiy mamlakatlar bilan solishtiradigan bo‘lsak, quyidagi vaziyatga guvohi bo‘lamiz (2-rasmga qarang).

**2-rasm. YaIM tarkibida ta’lim xarajatlari ulushi, foizda⁵**

⁴ Образование в цифрах: 2019 : краткий статистический сборник / Н.В. Бондаренко, Л. М. Гохберг, Н. В. Ковалева и др.; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muagistrant tomonidan tayyorlandi



Ta’lim tizimini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga kattaroq ulushi to‘g‘ri kelgan mamlakatlar sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Norvegiyani e’tirof etish mumkin.

Ta’lim tizimini moliyalashtirish tartibi va byudjet tizimi darajalari bo‘yicha ta’lim tizimiga byudjet xarajatlarini taqsimlanishi ko‘rsatkichlariga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- ta’limni moliyalashtirishga turli darajadagi hokimiyatlarning xarajatlar vakolatlarining belgilanishi;
- mamlakatlar tuzilishining o‘ziga xosligi;
- ta’lim tizimini moliyalashtirishni markazlashtirish va markazlashtirmaslik darajalarining farqlanishi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan mamlakatlarda ta’lim tizimida byudjet mablag‘lari rejalashtirish va taqsimlashning quyidagi metodlaridan foydalaniladi:

- jon boshiga moliyalashtirish;
- normativ moliyalashtirish;
- normativ-jon boshiga moliyalashtirish (1-jadval).

**Xorijiy davlatlarda ta’lim xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan
moliyalashtirish usullari⁶ 1-jadval**

Mamlakat	Rejalashtirish va moliyalashtirish usullari
Buyuk Britaniya	Byudjet mablag‘lari jon boshiga moliyalashtirish orqali ajratiladi. Moliyalashtirish hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib yosh bo‘yicha o‘quchilar soni va kam ta’minlangan oilalarning farzandlari hisoblanadi.

⁵ Образование в цифрах: 2019 : краткий статистический сборник / Н.В. Бондаренко, Л. М. Гохберг, Н. В. Ковалева и др.; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muagistrant tomonidan tayyorlandi

⁶ В.А.Сплендер, А.И.Палюх Анализ международного опыта использования механизмов планирования и финансирования расходов на образование и возможность его использования в сфере военного образования России. Вестник Евразийской науки The Eurasian Scientific Journal 2018, №5, Том 10



Germaniya	Jon boshiga moliyalashtirish, ya’ni bunda byudjet mablag‘lari jon boshiga ajaratiladi va xarajatlar normativlari deyarli hisobga olinmaydi.
Italiya	Normativ-jon boshiga moliyalashtirish. Ta’lim uchun byudjet xarajatlari har bir o‘quvchiga sarflanadigan me’yorlar bo‘yicha ajartiladi
Yangi Zelandiya	Jon boshiga moliyalashtirish. Moliyalashtirish quyidai shaklda amalga oshiriladi: 1. Davlat ustuvor yo‘nalishlar va kurslar to‘g‘risida ma’lumot beradi; 2. Ta’lim muassasasi nechta o‘quvchi qabul qilmoqchiligi haqida xayuar beradi; 3. Davlat qancha o‘quchini moliyalashtirishga tayyor ekanligini e’lon qiladi (ammo, ta’lim muassasasi ko‘roq o‘quvchi olishi ham mumkin)
AQSh	Mablag‘larni taqsimlashni(ajartishni) turli usullaridan foydalanadi, shu jumladan jon boshiga moliyalashtirishni hisobga oladigan turli xil formulalar va boshlang‘ich dasturlar, o‘quchilarning xususiyatlarini hisobga oluvchi omillar, maktablarning spetsifikasini hisobga oluvchi omillarni hisobga oladi
Fransiya	Normativ-jon boshiga moliyalashtirish
Finlyandiya	Normativ-jon boshiga moliyalashtirish. Davlat subsidiyalari - munitsipalitetlarga grantlar kompensatsiya-teglashtirish asosida ajartiladi va alohida statyalar bo‘yicha ajratilmaydi. 1o‘quvchiga va 1 o‘quv soatiga to‘g‘ri keladigan normativlarlarga asosan mablag‘ ajrtiladi. Shuningdek, munitsipalitetlarning ta’limga sarflanadigan xarajatlari o‘rtacha 57 %ga qoplaydigan tarzda hisoblab chiqiladi.



Shveytsariya	Byudjet xarajatlari jon boshiga moliyalashtirishga asosan ajratiladi
Janubiy Koreya	Normativ moliyalashtirish. Xarajatlar xizmat tannarxi, o‘lchov birliklari va tuzatish koeffitsientining ko‘paytmasiga teng bo‘ladi

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ko‘pgina mamlakatlarda ta’lim tizimini moliyalashtirishda normativ-jon boshiga moliyalashtirish usulidan fodalanilar ekan. Va bu usul byudjetdan moliyalashtirishda samarali usul hisoblanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.jstor.org/> Jean-Claude Eicher. “The Financing of Education: An Economic Issue” European Journal of Education, Vol. 35, No. 1 (Mar., 2019), pp. 33-44.
2. <http://www.jstor.org/> Jean-Claude Eicher. “The Financing of Education: An Economic Issue” European Journal of Education, Vol. 35, No. 1 (Mar., 2019), pp. 55.
3. Chia-HuiLu. “Social status, compulsory education, and growth”// Economic Modelling. Volume 68, January 2018, Pages 425-434
4. Образование в цифрах: 2019 : краткий статистический сборник / Н.В. Бондаренко, Л. М. Гохберг, Н. В. Ковалева и др.; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muagistrant tomonidan tayyorlandi
5. Образование в цифрах: 2019 : краткий статистический сборник / Н.В. Бондаренко, Л. М. Гохберг, Н. В. Ковалева и др.; Нац. исслед. ун-т “Высшая школа экономики”. – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muagistrant tomonidan tayyorlandi